

YANGI YIL BILAN!

www.tongyulduzi.uz



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

TONGYULDUZI

2010-yil
27-dekabr
N:52
(66801)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

O'N IKKI OY HIKMATI

Muharrir so'zi

Uch yuz oltmish besh kun, ya'ni o'n ikki oy o'tib ketdi! Bir yil! Shuncha tez – bir ko'z o'chib yumguncha. Umringizning yana bir yili ortda qoldi-ya! Nahotki?! Zukko tengdoshingiz ortiga nazar solganha: «Bu yil nimalarga erishdim?» deya o'zini imtihon qilmoqda. Bu yaxshi odat. Chunki umr o'tkinchi. Uni sarhisob qilib turish esa insonga ko'p narsa beradi.

O'n ikki oy hikmati! U nima degani?

Qaysi biringiz shu o'n ikki oyda o'zingiz ko'zlagan niyatlarga yetgan bo'lsangiz, har holda hikmatga erishibsiz: har bir o'qigan kitobingiz, har bir olgan a'lo bahoingiz, kattalarga ko'rsatgan har bir izzatingiz, ustozingizdan eshitgan har bir yaxshi so'z, qo'lga kiritgan «Maqtov yorliqlari, Diplomalaringiz – bularning bari o'n ikki oy hikmati. Bobom: «Hikmatga erishdingmi, bolam, demak, odam bo'lasan!» derdilar. O'tgan shu o'n ikki oy davomida fan va texnika, sport sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan tengdoshlaringizning nomlarini bir-bir eslang. Ularning nomlarini birma-bir zikr etsangiz, sahifalar torlik zikr qiladi. Yil davomida biz ularning har biri bilan sizlarni tanishtirib bordik. Ular haqida o'qingiz, bildingiz va havas ham qildingiz. Havas bilan yashash qanchalik yaxshi. Bundan boshqalarning ham yaxshi manfaatdor bo'lishlarini o'zingiz ham teran anglaysiz.

(Davomi 2-betda)



– Menga
ham zo'r sovg'a
berdi, – deydi
Anorbek.

Islombek:
– Qorbobo
menga o'yinchoq
sovg'a qildi.



1994-yilda yaxshi niyatlar bilan asos solingan Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktab-internati nafaqat tumanda, balki viloyat va respublikada ham tanilgan o'quv maskanlaridandir.



ME'YOR BO'LGANI YAXSHI

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi Svetlana Min rahbarlik qilayotgan 49-maktabda «Barkamol avlod tarbiyasida uyali aloqa vositalari hamda internetning ijobiy va salbiy tomonlari» mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda tumandagi Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fan o'qituvchilari, yozuvchilar uyushmasi vakillari hamda matbuot xodimlari qatnashdilar.



TSHXTB metod markazi uslubchisi Zamira Azimboyeva, TSHPKQTI katta o'qituvchisi Nabijon Narziyevning mavzuga oid chiqishlari ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Mazkur maktab o'qituvchisi Nilufar Xolmuhammedova, 279-maktabdan Feruza Mirbaratova, 27-maktabdan Rixsi Maxamadjonova kabi ustozlar tayyorlab kelgan ma'ruzalarning videotasvirlar uyg'unligida ta'sirchanligi yanayam ortdi. Darvoqe, biz yuqori texnologiyalar rivojlangan asrda yashayapmiz. Uyali aloqa vositalari kirib bormagan xonadon topilmasa kerak. Internet ham kundalik ehtiyojimizga aylanib bormoqda. Ammo hamma narsada me'yorni saqlay bilish kerak. Bu texnikalar inson uchun xizmat qilsin. Konferensiyadan maqsad ham shu edi. Nazarimda, bu yo'lda dastlabki qadamlar tashlandi.

NAMUNALI BILIM MASKANI

Maktabimiz o'quvchilari va o'qituvchilari «Barkamol avlod yili»da bir qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdilar, – deydi muassasa rahbari, tajribali pedagog Yusufjon aka Roziqov.

Maktab-internat o'qituvchilar jamoasining qator yillardan buyon tinimsiz qilgan mehnatlari o'zining ijobiy samarasini berdi. Bu yil maktabni 52 nafar yoshlar bitirib, mustaqil hayotga qadam qo'ydilar.

Bitiruvchilarning 44 nafari talabalik baxtiga erishishdi. Quvonarlisi, ularning 18 nafari Davlat granti asosida o'qishni davom ettirishmoqda. Maktab-internatni muvaffaqiyatli bitirgan Mastura Mo'minova hamda Jaloliddin Mahmudtalizoda Farg'ona Davlat universiteti talabasi bo'lishdi.

Bunday ulkan yutuqlar maktab rahbariyati va malakali o'quvchilar jamoasining tinimsiz izlanishlari,

hamkorlikdagi mehnatlari samarasidir. Ayniqsa, mehnat faxriylari J.Hakimov, A.Hoshimov hamkorlikda ish olib borayotgan FDU dotsentlari E.Azizov, I.Xolbekov, maktabning ilg'or o'qituvchilari U.Abduvohidova, YU.Ahmadbekova, S.Teshaboyev, D.Zokirov, N.Rahimov, D.Abdurahimova, D.To'xtasinova kabi ustozlarning xizmatlari beqiyos.

Ibodulla SHOYMARDONOV

O'N IKKI OY HIKMATI

(Davomi. Boshi 1-betda)

Inson bir-biriga bog'liq holda yaratilgan. Birgina bizning jamoani oling. Shu o'n ikki oy davomida ularning har biri sizlar uchun mehnat qilishdi: ijodiy safarlarga chiqib, sizlar bilan suhbatlar qurishdi, fikr-mulohazalaringizni o'rganib, xabar, maqola, lavhalar yozishdi; tahririyatimizga yuborgan xatlariningizni, she'r va hikoyalaringizni tayyorlab, gazeta sahifalariga joylashtirishdi. «Mana bu she'r yaxshi ekan, mana bu xabar, maqola juda yaxshi yozilgan ekan, shuni bera qolaylik!» deya yelib-yugurib, kuyunchaklik qilishlari menga yoqadi. Bunday ezgu sa'y-harakatlarni ko'rib, ochig'i, o'zim quvonaman. Fidoyilik, yaxshilikni ko'ra bilish, eng muhimi, tanish, notanish bolalarning quvonchiga quvonch qo'shish juda xayrli ish. Bunday ishlarni qo'llab-quvvatlash ijobiy samara beradi, albatta.

O'n ikki oy davomida biz bilan birga hamsuhbat bo'ldingiz, xatlar yozdingiz, internet poch-tamiz orqali muloqot qilib turdingiz, umuman olganda, bizga hamkor bo'lib, juda katta yordam ko'r-

satdingiz. Biz barchangizga o'z minnatdorligimizni izhor etamiz, aziz yosh muxlislarimiz!

«Obuna – 2010» mavsumida faol ishtirok etgan Samarqand, Andijon, Namangan, Farg'ona viloyati maktab o'quvchilariga, ularga bosh bo'lgan rahbarlariga, mutasaddi tashkilotlarga tashakkurimizni bildiramiz va bu yilgi «Obuna – 2011» mavsumida ular kabi boshqa viloyat o'quvchilarining ham yanada faol ishtirok etishlariga ishonamiz.

«Tong yulduzi» jamoasi shavkatli mamlakatimizning maktablarida tahsil olayotgan barcha o'quvchilarni, shuningdek, ularga ta'lim berayotgan ustoz-murabbiylarni ham tabrik etib, chin dildan qutlaydi. O'n ikki oy davomida ularning zahmatli mehnatlari tufayli Siz, aziz o'quvchim, dunyoni yanada teranroq, chuqurroq angladingiz. Ularning har birlarini tabrik etishni unutmang! Bu ham o'n ikki oy hikmatiga kiradi.



Yangi yilingiz muborak bo'lsin!

ZUKKOLAR BELLASHUVI

Poytaxtdagi 142-maktabda, Toshkent shahridagi umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilar orasidagi eng bilimdon, qobiliyatli, izlanuvchan yoshlarni aniqlash, ularni erkin fikrli, keng tafakkurli, barkamol shaxs qilib tarbiyalashga, xizmat qiluvchi anjuman o'tkazildi. Unda poytaxt maktablarida bilim olayotgan to'qqiz nafar bitiruvchi sinf o'quvchilari Prezidentimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobi yuzasidan tayyorlangan ijodiy ishlarini himoya qildilar.

Tadbir so'ngida o'quvchilar «Eng bilimdon o'quvchi», «Eng iqtidorli o'quvchi», «Eng bilimdon notiq o'quvchi» nominatsiyalari bo'yicha «Faxriy yorliq»lar hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Yusuf ABDULLAYEV

«TONG YULDUZI» SURXONDARYODA!

Tongda chiqib ziyo socharamish,
Maktablarda quchoq ocharamish,
Muxlislarin izlab toparmish,
«Tong yulduzi» Surxondaryoda!

Har bir bola qo'lga yetgay,
O'quvchilar qo'lma-qo'l etgay,
«Ko'pligi»dan quvonib ketgay,
«Tong yulduzi» Surxondaryoda!

Kamol topar barkamol avlod,
Qaynayapti yangicha hayot,
Ezgu ishga erur qo'sh qanot,
«Tong yulduzi» Surxondaryoda!

O'g'il-qizlar chanqoq ilmga,
Ular taskin berar dilimga,
Baxt keltirar «Yangi yil»imga
«Tong yulduzi» Surxondaryoda!

AXTAMQULI

IMKONIYATLAR YILI BO'LADI

«Iste'dod egalarini tarbiyalash shunday bir kimyodirki, u qora tuproqni sof oltinga, noqis toshni esa dur-u gavharga aylantiradi», deb yozgan edi Xo'ja Samandar Termiziy. Ana shu hikmatni o'z hayot falsafasiga aylantirgan ustozimiz, Jizzax tumani 1-o'quvchilar ijodiyot markazi rahbari Zahro opa Mo'minova yaqinda «Yil ayoli» milliy tanlovining viloyat bosqichi g'olibasi bo'ldi.

Bugungi kunda litsey talabasi bo'lsam-da, ushbu markazdan sira uzoqlashgim kelmaydi.

Tumanimizning chekka bir qishlog'ida joylashgan bo'lishiga qaramay, 600 dan ziyod o'quvchilarni o'z bag'riga olgan markazdagi o'zgarishlar hech kimni bee'tibor qoldirmaydi. U yerdagi amaliy san'at, ma'naviy va ma'rifiy, badiiy nafosat yo'nalishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan 15 ta to'garakka Zahro opa singari o'nlab jonkuyar, mehribon, talabchan ustozlar rahbarlik qilishmoqda.

Tumanimizga yo'lingiz tushsa, markazga, albatta, bir kirib o'ting. Bir xonada o'zbekona ibo bilan raqs tushayotgan yosh raqqosalarni ko'rib ko'zingiz quvonsa, boshqa

xonada qo'shiq xirgoyi qilgancha do'ppi tikayotgan qizlarga ko'zingiz tushadi. Keyingi xonadan ingliz, rus

Quvonarlisi, markaz o'quvchilari viloyat va respublikada o'tkazilayotgan turli tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritib, ustozlari mehnatini oqlamoqdalar.

Eshik qoqayotgan yangi yilimizning «Kichik biznes va tadbirkorlik yili» deya nomlanishi biz yoshlarning g'ayratimizga g'ayrat qo'shdi.

Mana shunday markazlarda o'rganagan hunar va malakalarimizni tadbirkorlik borasida sinab ko'rishimiz uchun imkoniyatlar eshigi yanada kengroq ochildi.

Baxtixon ISROILOVA,
Jizzax Davlat pedagogika instituti qoshidagi
2-akademik litsey o'quvchisi



tillarida biyron-biyron so'zlashayotgan o'g'il-qizlarning ovozlari qulog'ingizga chalinsa, yana bir xonada qaychi va qog'oz yordamida mo'jizalar yaratayotgan tengdoshlaringizni uchratasiz.

YANGI YIL AJOYIBOTLARI

«Madridlik shef-oshpaz Xusto Almedrote «Rojdestvo» bayramiga atab shokoladdan balandligi 6,5 metr bo'lgan archa yasadi. Ushbu archa 2008-yilning 10-dekabr kuni namoyish etildi va Guinnessning rekordlar kitobiga kiritildi.

Dunyoda qordan yasalgan eng katta haykalning hajmi 3398 m² bo'lib, uni xitoylik 600 nafar haykaltarosh birgalikda yaratishdi. Bu haykal 2007-yil dekabr oyida namoyish etildi.

Pingvin 3 metr balandlikka sakray olar ekan.

Asalarining ikkita oshqozoni bor. Uning biri ovqatlanish uchun, ikkinchisini vazifasi esa asal yig'ishdir.



BILIMLAR SINMOVI

Tinib-tinchimas boshlang'ich sinf o'quvchilari dekabr oyida olgan bilimlarini sinovdan o'tkazishdi. Undan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilarning quvonchi cheksiz. To'g'ri-da, tinimsiz izlanishlari, ko'p o'qish-o'rganishlari zoye ketmadi.

Uchtepa tumanidagi 296-maktabda dekabr oyi boshlang'ich sinflar fan oyligi deb e'lon qilingan edi. Barcha sinf o'quvchilari bir-birlaridan qolishmaslik uchun astoydil harakat qilishdi. Ayniqsa, 1-«A» sinfda

matematika fanidan, 3-«V» sinfda ona tili fanidan o'tkazilgan noan'anaviy usuldagi darslar qiziqarliligi bilan ajralib turdi.

Tajribali ustozlar Ra'no Umirova, Feruza Qodirova, Gulchehra Ibragimova tomonidan tayyorlangan ochiq darslar, kichik sahna ko'rinishlari fan oyligining yanada jonli o'tishiga sabab bo'ldi.

OLMOS

YANGI YIL BARCHAGA QUVONCH OLIB KELSIN

Yangi yil sevimli bayramlarimizdan biri bo'lib, uning tarixi eramizdan avvalgi II asrga borib taqaladi. Bu bayram eng avval Rim imperiyasida va Sharqda nishonlangan. IV asrga kelib G'arbiy Yevropada tantana qilina boshlangan. Avvallari o'tkaziladigan Yangi yil bayrami «Quyoshning tug'ilgan kuni» deb atalgan. Yangi yil turli davlatlarda o'ziga xos ravishda kutib olinadi. Yangi yilni ko'tarinki kayfiyatda kutib olish va kelayotgan yilda ezgu istaklar ro'yobini ko'rish, siz, aziz bolajonlarga bayramona kayfiyat ulashish maqsadida, Yangi yil viktorina savollarini e'tiboringizga havola etamiz:

1. Gollandiyalik bolalar huzuriga Qorbobo qanday keladi?

- a) kemada;
- b) otlar qo'shilgan aravada;
- d) bug'ular qo'shilgan chanada.

2. Dastlabki Yangi yil tabrik qog'oz (otkritka) qaysi davlatda paydo bo'lgan?

- a) Amerikada;
- b) Angliyada;
- d) Yaponiyada.


3. Yaponiyaning budda ehromlaridagi qo'ng'iroqlardan Yangi yil kechasi necha marta bong uriladi?

- a) 108;
- b) 12;
- d) 31.

4. Qaysi davlatda Yangi yil sovg'asi mo'ridan tashlanadi?

- a) Fransiyada;
- b) Rossiyada;
- d) Turkiyada.

Shahlo XOLMATOVA



Uning siyosida farzandi yutug'idan shodlanayotgan onaning timsolini ko'rgandek bo'ldim. Oq oralagan sochlariga boqib, oldilarida qarzdorlik hissini tuydim. Ustoz ishonchini oqlagan aka-opalarimga havas qilib: «Qachon bizning muvaffaqiyatlarimizga ham guvoh bo'lar ekanlar?» deya o'ziga toldim.

Shunda beixtiyor maktabga ilk bor qadam qo'ygan kunlarim xayolimdan o'tdi: begona joy, notanish odamlar, men tanimaydigan o'g'il-qizlar. Ular orasidagi bir ayolni onajonimga o'xshatdim. Suratini emas, siyratini o'xshatdim. U

Ko'zlari quvonchdan porlab, oliy o'quv yurtlariga yuqori o'rinlarda qabul qilingan sobiq o'quvchilari yo'qlab kelishganini aytdilar. Shu tobda ustozning chehrasidan nur yog'ilayotgandek, yuzidagi ajinlari ham yozilib ketgandek tuyuldi bizga.

Ona tili darsida eshik ohistagina taqillab qoldi. Ustozimiz tashqariga chiqib, birozdan so'ng ko'tarinki kayfiyatda kirib keldilar.

Dilnoza NOROVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
63-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining
7-«A» sinf o'quvchisi

2010

Tong yulduzi
27-dekabr

POK ORZULAR USHALSIN

Ayoz momo par to'shagin silkitar,
Par to'shagi chok-chokidan so'tilar.
Par to'shakdan kumush zarlar to'qilar,
Kumush zardan zarzin gilam to'qilar.

Zarzin gilam yer yuziga to'shalsin,
Yangi yilda pok orzular ushalsin.
Orzularin dil bog'imga aylansin,
So'ngra, oppoq oqliklarga boylansin.

Shodiyabegim SHAROFIY,

Jizzax viloyati, Forish tumanidagi
59-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi

ORTDA QOLSIN DARD, ALAM...

Yangi yilingiz muborak bo'lsin,
Qalbingiz quvonch-u shodlikka to'lsin.
Yor bo'lsin doimo baxt, iqbol, omad,
Yangi orzular bo'lsin ijobat!

Yangi yilda to'lsin barchaning kami,
Ortda qolsin dardi, alami, g'ami.
Yangi orzu-umidlar bo'lib qo'shqanot,
Yangi yilda ushalsin dildagi murod.

Risolatxon IBRAGIMOVA,
Uchtepa tumanidagi 296-maktabning
7-sinf o'quvchisi

TABIAT OLMOQDA DAM

Bola kabi beg'ubor
Yangi yil kirib keldi.
Osmon bag'rini to'sib,
Sovuq izz'irin yeldi.

Mayin uchib yoqqan qor,
Dilga orzular soldi.
Yuraklarda to'plangan,
Barcha g'uborni oldi.

Kumush libos bichildi,
Bizning yurtimizga ham.
Tabiat-chi, toliqib,
Miriqib olmoqda dam.

Maftuna IBROHIMOVA

PARVONAMIZ BARCHAMIZ

Shodlik, quvonchga to'lib
Ketar bizning ko'chamiz.
Har yil betakror o'tar,
Yangi yilgi kechamiz.

O'z ko'rkini taratib,
Chiroy ochar archamiz.
Uni ko'rkam bezatib,
Parvonamiz barchamiz.

Qorbobo, Qorqiz kelib,
Sovg'a ulashar bizga.
Ezgu tilaklar tilar
Barcha o'g'il-qizga.

Shodlik, quvonchga to'lsin
Yangi yilda dilimiz.
Shunday omadli kelsin
Bizning Yangi yilimiz.


Laylo TO'YCHIYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Yakkabog' tumanidagi
37-umumta'lim
maktabining
8-«D» sinf o'quvchisi

BARKAMOL YOSHLAR

Kasb-u hunar, bilim – quvonchi,
Elimizning tog'dek tayanchi.
Kelajakning umid, ishonchi –
Yurt yashnatar barkamol yoshlar!

Tinim bilmas – xalq uchun yonar,
G'ayratidan cho'lda gul unar.
Shundan boshga baxt qushi qo'nar –
Yurt yashnatar barkamol yoshlar!

Davlatimiz ochib qo'ydi yo'l,
Bizlar uchun imkoniyat mo'l.
Zulfizar, sog', dono, oqil bo'l,
Yurt yashnatar barkamol yoshlar!



Yong'irdan so'ng havoda
Go'zal tus bo'ldi paydo.
Gumbazday keng samoda
Nurlar yondi, ajabo...

Shu chog' ko'kka bir qarang,
Har bulut – oppoq malak...
Yeti jilo, yeti rang –
Chiqmish tovus kamalak.

Go'yo bizni baxt chorlab,
Dunyo rangin tovlanar.
Kamalakdan zar porlab,
Zavq shodlikka aylanar!

Zulfizar IBRAGIMOVA,
Angren shahar,
kompyuter-axborot texnologiyasi
kollejinining 3-bosqich talabasi



Har yili Yangi yil bayrami arafasida bundan uch yil avval sodir bo'lgan bir ko'ngilsiz voqea yodingga tushaveradi:

Qo'shnimiz Jannat opaning Doniyor va Javohir ismli o'g'illari bor. Bolakaylar ota-onasining tushlik uchun bergan pullarini yig'ib-yig'ib, bir talay paqildoqlar sotib olishibdi. Yangi yil kirib keladigan kuni Jannat opa bayram dasturxonini bezash ishlari bilan andarmon bo'ldi, issiqqina nonlar, somsalar yopdi, mazali taom pishirdi, xilma-xil salatlar tayyorladi. Oila a'zolari to'kin dasturxon atrofiga o'tirishdi hamki, aka-uka shovvozlardan darak yo'q...

Shu payt Javohir halloslagancha xonaga kirib keldi va akasi Doniyorning paqildoqdan kuyib qolganini aytdi-yu, yana otilib hovliga chiqib ketdi. Dasturxon dasturxonda qoldi, hammalari tashqariga otildirdi. Ma'lum bo'lishicha, Doniyor paqildog'ini tandirdagi cho'g' yordamida yoqib olmoqchi bo'lgan ekan. Paqildoq tandir ichida portlab ketib, bolaning yuz-ko'zlarini kuydirib yuboribdi. Natijada, bu oilaning barcha a'zolari Yangi yilni kasalxonada kutib olishdi...

Yaqinda mayda-chuyda yumushlar bilan bozorga tushgandim, g'alati bir suhbatning guvohi bo'ldim: – Amaki, «chiy-ban»ingiz bormi? – so'radi bir bolakay archa o'yinchoqlari sotayotgan amakidan. Sotuvchi menga bir qarab oldi-da, o'g'lim, bir aylanib kelgin, deya ko'zini qisib qo'ydi.

– Amaki, u-ku bola, siz axir kap-katta odamsiz-ku, shu ishingiz yaxshimi? – dedim uning maqsadini tushunib. – Mana shunday «chiy-ban»larni deb qancha-qancha bolalar ozor chekishyapti, ayrimlari bir umrga nogiron bo'lib qolishyapti. Ularning orasida sizning nabiralaringiz ham bo'lmasligiga kim kafolat beradi? Balki ular ham ayni damda siz kabi hojatbaror amakilarand mana shunday «o'yinchoq»lar sotib olishayotgandir?!

– Qo'lingizdan kelsa, siz ham tadbirkorlik qiling, – jerkib berdi amaki. – Gazeta o'qiysizmi o'zi, bu yil biz tadbirkorlarning yilimiz bo'ldi.

– Farzandlarimiz salomatligini xavf ostiga



AMAKI, «CHIY-BAN» BORMI?

qo'yadigan bunday «o'yinchoqlar» sotishni tadbirkorlik deb bo'ladimi, axir?!
Gazeta o'qib

turarkansiz, pirotexnika vositalari savdosini qonun orqali nazoratga olinishi haqida ham o'qigandirsiz? – dedim men ham bo'sh kelmay. – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2010-yil 28-avgustda bo'lib o'tgan uchinchi yalpi majlisida «Pirotexnika buyumlari muomalasi tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunining qabul qilinishi ayni muddao bo'ldi-da.

Yong'in keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan portlovchi o'yinchoqlardan foydalanish oqibatida ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lishi mumkinligi inobatga olinib, ushbu turdagi mahsulotlarning bozorlarimizga kirib kelishga yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratilyapti. Pirotexnika vositalari endi qonun orqali nazoratga olinadi...

Aslida-ku, bayram arafasida bunday noxush voqealarni eslashning o'zi noo'rin: kishining ko'tarinki kayfiyatiga ta'sir qiladi. Lekin bu hayotiy voqeani hikoya qilishdan ko'zlagan maqsadimiz faqat ezgulik: u nafaqat o'yinchoq bolajonlarimizga, balki bayram bahona farzandlarimiz salomatligini xavf ostida qoldirish evaziga mo'may daromad orttirish ilinjida bo'ladigan «tadbirkor» amaki va xolaralarimizga, shuningdek, berayotgan pullarini farzandlari nimalarga sarflayotganiga befarq ayrim ota-onalarga ham saboq bo'lsa, deymiz.

Farzandlarimiz salomatligi uchun barchamiz birdek qayg'ursakgina, ko'zlagan maqsadimizga erishamiz. Bolaning begonasi bo'lmaydi, axir.


Feruza JALILOVA



2010

Tong yulduzi
27-dekabrOna Vatanimizda eng ulkan archa
bezatiladigan maydonni bilasizmi?

CHAYNVORD



1. Kuzatilgan yilda Xitoyda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlari oltin medaliga sazovor bo'lgan o'zbek shaxmat grossmestri, jahon chempioni. 2. Boshlanayotgan yilda 75 yoshga to'ladigan O'zbekiston qahramoni, xalq shoiri. 3. Fursat, davr. 4. Vetnamda Yangi yil bayramiga berilgan nom. 5. «Vaqt karvoni» nomini olgan jadval. 6. Ona Vatanimizda eng ulkan archa bezatiladigan maydon. 7. Minorra soat. 8. Orzu, istak. 9. Chiroq, go'zallik. 10. Bilimlar asosi. 11. Italiyada bolajonlarga Yangi yil sovg'alarini eshakka minib, Qorbobo o'miga olib keluvchi keksa ayolning nomi. 12. Bezanadigan daraxt. 13.

Sayyoramizning eng shimoliy hududi. 14. Do'stlik, inoqlik. 15. Ba'zi mamlakatlarda ikkinchi nondek e'zozlanadigan sabzavot. 16. Shamsiya yili hisobidagi oy. 17. Hafta kuni. 18. Kuchli sovuq. 19. Insonga lazzat bag'ishlovchi kayfiyat. 20. Muchal hisobi bo'yicha boshlanayotgan yil. 21. Sharqona Yangi yil ayyomi. 22. Yangi yil boshlanganidan xabar beruvchi soat jarangi. 23. «Dunyo soati» deb qabul qilingan vaqt meridianida joylashgan London shahri yaqinidagi okrug. 24. Mo'g'ulistonda Qorbobo sifatida tashrif buyuradigan kasb egasi. 25. Eng mo'tabar ne'mat. 26. Erta tong. 27. Mashhur xalq dostonidagi qahramon. 28. Sayl va

tantanalarda samoda gumburlab, turfa rang hosil qiluvchi vosita. 29. Vatanimizda ommalashayotgan sport turi. 30. Kuzatilgan yilda bo'lib o'tgan jahon futbol chempionatining mohir hakami, vatandoshimiz. 31. Yangi yil dasturxoniga parranda go'shti qo'yilsa, go'yo baxt-omad uchib ketadi, deyilgan odat saqlanib qolgan Yevropadagi davlat. 32. Qishga saqlanadigan ho'l meva. 33. O'zbek xalq raqs kuyi. 34. Dunyo xalqlari orzusi. 35. Birodarsizlik yoki faoliyatni baholash maqsadida o'tkaziladigan tanlov tadbiri. 36. Vatanimiz yoshlari ijtimoiy harakati tashkiloti. 37. In'om, sovg'a.

MUAMMONOMA

Avvalo quyida ta'riflanib, raqamlarda ifodalangan. kalit so'zlarni toping.

1. Yangi yil darakhchisi – 14, 4, 10, 14, 8, 11.
2. Mumtoz mutafakkir shoir Rudakiy hikmatidan: Jahonning shodligi yig'ilsa butun, 22, 19, 20, 5, 6, 2, 10 diydoridan bo'lolmas ustun.
3. Voqea-hodisalar davrlari bo'yicha qayd etilgan manba – 7, 8, 6, 1, 4, 21, 2.
4. Markaziy Osiyodagi eng katta shahar – 5, 4, 12, 16, 17, 1, 5.
5. Dunyo tomoni – 15, 2, 10, 3.
6. Maktub, noma – 18, 2, 5.
7. Eng yaxshi sovg'a – 13, 9, 6.

Endi kalit so'zlari javoblari asosida shakl atrofidagi raqamlarni harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Bunda ulardan tilak so'zlarimizdan birini bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi



Ilmga tashna bolalar uchun
kitobdan ham yaxshiroq sovg'a
bo'lmasa kerak. «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyii
«Barkamol avlod yili»da ular
uchun 20dan ortiq turli nomdagi
kitoblarni nashr qildi.

Ayniqsa, yurtboshimiz asarlari-dagi purma'no so'zlardan tashkil topgan «Kelajak yoshlar qo'liga» kitobidagi hikmatli fikrlar o'g'il-qizlarni yanada a'lo o'qib, kelajakda Vatani uchun munosib farzand, yetuk mutaxassis bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.


Nashriyot ijodiy jamoasi O'zbekiston xalq shoiri Raim Farhodiy bilan hamkorlikda o'zbek va rus tillarida «Vatanim bayramlari, bolalik ayyomlari» («Prazdniki Rodini, prazdniki detstva») to'plamini ko'p ming nusxada nashr qildiki, u ko'pchilik yoshlar uchun Yangi yil arafasida haqiqiy bayram sovg'asi bo'ldi. Bu kitobdan taniqli bolalar adiblarining asarlari bilan bir qatorda respublikamizning turli burchaklarida yashab, ijod qilayotgan iste'dodli yoshlarning she'rlari hamda rasmlari keng o'rin olgan.

Nashriyot «O'zing yasa» turkumida bir qator kitoblarni nashr qildiki, ular jajji bolajonlar uchun juda asqotadi. Jumladan, aviamodelchilar to'garaklari-ga qatnashuvchi o'smirlar uchun bir necha samolyotlarning nusxalari qalin qog'ozlarda tayyorlandi. Ularni qirib, samolyotlar yasash mumkin. Bu yo'nalishdagi kitobchalar kichikintoy qizlar uchun ham tayyorlandi. Kitobchani olgan qizaloq qisqa muddatda qog'ozni qirib, rang-rang guillar, o'g'il bolalar esa fil, tuya, tuyaqush, timsohlarni yasashlari mumkin. «Malika uchun liboslarni qir», «Ajoyib applikatsiya», «Applika-tsiya choyxona» kabi o'yin kitoblari har bir jajji bolakayni xushnud etishi tabiiy. Bu o'yin-kitoblar zamonaviy dizayn asosida rangli rasmlar bilan bezatilgan bo'lib, bolalarning fikr-o'yini kengaytiradi, kitobga bo'lgan mehrini oshiradi.

Nashriyot jamoasi bunday rang-barang kitoblarni kelgusi yilda ham ko'p ming nusxada nashr etishni mo'ljal-lagan.

R.JABBOROV.

Suratlarda: «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyida
bolalar uchun nashr etilgan yangi
kitoblar



O'quvchi yon daftariga

SOVG'A

O'tgan yili Yangi yil kunida Qudrat degan o'smirm tanishimiz volidai muhtaramasiga «O'zbek taomlari kitobi»ni, singlisiga «Chevarlik sirlari»ni sovg'a qilgan ekan, yil bo'yi onasi shirin taomlar pishirib bergan bo'lsa, singlisi kiyimlarini butlab, dazmollab qo'yibdi. Uni ozoda, toza ust-boshda xursand holda, ko'rgan sinfdoshlari buning sirini bilolmay rosa boshlari qotibdi. Qalay, kitob sovg'a qilish yomon emas-a?! Faqat kimga, qanday kitob sovg'a qilishni bilish kerak, xolos!



ENG XARIDORGIR KITOBLAR

O'tgan yilning eng xaridorgir kitoblarini bilasizmi? Albatta, bu haqda ko'plar xabardor bo'lishgan. Biz ularni eslatib o'tamiz. Yapon yozuvchisi Xaruki Murakamining «1084» romani 3,5 mln.dan ortiq nusxada sotilgan bo'lsa, amerikalik Den Braunning «Da Vinchi siri» kitobi 8 mln. nusxada chop etildi va tezda tarqab ketdi. Xulosa qilib ko'rsak, insoniyatning kitobga bo'lgan mehri o'z-gacha, ba'zi safsatabozlarning kitobga bo'lgan bepisand munosabatlari esa vaqtinchalik bir hodisa, xolos!

QORDAGI SO'ZLAR

Yangi yil oqshomida qorda tilak yozishni ko'pchilik xush ko'radi. O'tgan yilda Ibrohimjon degan bola qorong'i tushmasdan burun hovliga chiqib, qorga «Onajon, Siz dunyodagi eng go'zal ayolsiz!» so'zlarini yozib, o'zi oshxonada kuymalanib yurgan onasiga: «Derazadan hovlimizga bir qarang, g'aroyib hodisani ko'rasiz!» deydi. Onasi qordagi so'zlarni o'qib, o'g'lidani juda-juda minnatdor bo'lgan. Yangi yil kuni, avvalo, onajoningizni tabriklashni unutmang!

SHAHNOZA tayyorladi



O'YINQAROQ SHAMOLLAR

Ingliz bolalar adabiyotini yuksak cho'qqilarga ko'targan shoirlardan biri Uolter De La Merdir. Uning dilbar va quvnoq she'riyat kichkintoylarning dilgir hissiyotlari bilan bilvosita uyg'unlashib ketadi. U 1873-yilda Angliyada tug'ilgan. San Paula shahridagi Cherkov qoshida tashkil etilgan xor maktabini tugatgach, neft kompaniyasida xizmat qilib, badiiy ijodda ham o'z iqtidorini sinab ko'radi. 1908-yildan boshlab, faqat bolalar uchun asarlar yozishga kirishadi. Uolter 1930-yillarga kelib, ingliz bolalar adabiyotining yetuk vakillaridan biriga aylanadi. Kichik kitobxonlarning se'latuvi, o'y va xayollaridan kelib chiqib, bitgan she'rlari o'ta samimiyligi bilan boshqa ijodkorlarning asarlaridan farq qiladi. Masalan:

Kajavada bodiring,
Aql bilan o'y boshda
Pat saqlanar yostiqa,
Bulbul sayrar og'ochda.
Somsa esa tandirda,
Daryoda karas baliq.
Etik turar qaznoqda,
Aqcha kartmonda – aniq.
Dala-dashda qarag'at,
O'yma-teshik nayda bor.
Maktabda – Jek,
Ko'rpada – Men
Bunday mazza qayda bor?!

Uolter De La Merning «Yo'qolgan boshmoq» she'rini o'qigan chog'ingizda, rus bolalar adabiyotining atqoli shoiri Korney Chukovskiyning «Jenni» to'g'risida yozgan quyidagi misralari beixtiyor xayolingizdan o'tadi:

Tuflisini yo'qotib Jenni,
Uni izlab yig'ladi, hordi.
Tegirmonchi tuflini topib,
Donga qo'shib tortib yubordi.

Demak, De La Mer rus bolalar adabiyotining mashhur vakillari Korney Chukovskiy hamda Samuil Marshakning ijodiga bevosita ta'sir qilganligi ularning asarlaridan yaqqol seziladi. De La Mer butun hayoti davomida yozgan barcha she'rlarini saralab, bitta kitobini nashr ettirgan, xolos. Ammo ayni vaqtda ana shu to'plam ingliz tilida so'zlovchi barcha mamlakatlarda yil sayin qayta-qayta yuz minglab nusxada bosiladi.

Uolter De La Merning she'rlarini birinchi marta o'zbek tiliga o'g'irishga 1970-yillarda urinib ko'rgan edim. Kutilmagan qofiyalar, misralarning ravonligi tutqich bermas o'yinqaroq shamollarni yodga soladi. Nazarimda, uning ijodi ustoz, Quadrat Hikmatning she'riyatiga ohangdosh. O'rni kelganda, pand-nasihatlarimiz bilan to'lib-toshgan, soni bor, sifati yo'q kitoblarimiz talabchan yosh avlodning fikrini o'tmaslashingtirayotganligini tan olgan holda, kichkintoylarning aqlini qayraydigan, fikrini charxlaydigan asarlar juda kam yozilayotganligini ham aytib o'tishimiz lozim.

U pishloqni yoqtirar juda,
Go'shtni esa yeydi yashirin.
Tap tortmayin tushirar axir,
Neki bo'lsa, mazali, shirin.

Tom boshida o'yinga tushar,
Yog'du sochar ko'kda yulduzlar.
Unga omad, istiqbol tilab,
Qarsak chalib sichqonlar so'zlar.

So'ngra, sakrab royal ustidan,
Musallasdan ichganday bo'ldi.
Ostonani teshib o'tgan chog',
Omborxonada suvlarga to'ldi.

Tinim bilmas yugurdaklari,
Sidqidildan xizmat qilishar.
Qancha hujra, qaznoqki bo'lsa,
Barchasini yoddan bilishar.

Tuynuk osha Shahzoda bir kun,
Uyga kirdi zardasi qaynab.
Xurrak tortib yotgan mushukning,
Mo'ylabini qo'ydi shart chaynab.

So'ng pinakka ketgan Qozining,
Chiqib borib yotgan o'rniga.
Mazax qilib, qitiqlab shu payt,
Quyruq'ini tiqdi burniga.

Bir kun bexos Kalamush bilan,
To'qnashdi-yu, boshlandi zo'r jang.
Kurashardi oriyat uchun,
Ammo kuchlar teng emas, attang.

Shiddat bilan hujumga o'tib,
Kimligini bildirib qo'ydi.
Ne ilojki, Kalamush battol,
Uning bo'ynin sindirib qo'ydi.

Teng-to'shlari choyshabga o'rab,
Ko'ksi uzra o'rnatishib sham.
Sukut saqlab tobuti uzra,
Keksa Sichqon so'zladi shu dam:

–Uzun quyruq Shahzoda uchun,
Yig'lasangiz arziydi zotan.
Botir edi, mard o'g'lon edi,
Qora kiyib tutingiz motam.

Hazin kuydan chaling, mashshoqlar,
Shahzodaning o'chmagay yodi.
Qutlug' nomin saqlar bir umr,
Sichqonlarning avlod-ajdodi.

Tursunboy ADASHBOYEV
tarjimasi

Uolter De La Mer,
ingliz shoiri



Yashar edi sichqonlar aro
Uzun dumli mashhur Shahzoda.
Xush ko'rardi tunda sangishni,
Quyruq'ini qilgan xoda.

Teshib qancha yerto'lalarni,
Saroylarga keltirgan ofat.
Kezib chiqib yetti iqlimni
Hamma joyda bergan ziyofat.

Ko'zni unga bergan qo'shqo'llab,
Chiroqdayin yonar parpirab.
Tishlari-chi, olmosning o'zi,
Arra kabi turar yarqirab.

Yugurdaklar xizmatiga shay,
Yuzta qayliq ko'nglini olar.
Dushman bilan olishmoq uchun
Yakka-yolg'iz bir o'zi borar.



Dilshod RAJAB

QORQIZGA OLQISH

Kim aytar: u parimas,
Undan chiroy arimas?!
Har yil bir yosh o'ssa ham,
Qorqiz sira qarimas!

Chunki dili pok uning,
Orzulari oq uning.
Nomi qordan bo'lsa ham,
Mehri ko'p qaynoq uning.

Xuddi go'zal oq qayin,
Boqishlari bir mayin.
Yasharib, ochilganday
Qorqizimiz yil sayin!

Shunday, qishda ham yashnab,
Sarg'aymasin, so'lmasin.
Yoshlik ketmasin tashlab,
Sira kampir bo'lmasin!



YANGI YIL TILAKLARI

Yangi yilda barchangizga,
Ezgu niyat tilayman.
Do'stlarim «5» olsin deb,
Qorbobodan so'rayman.

Yangi yilda bog'-tog'larga,
Guppa-guppa yog'sin qor.
Chanalarda uchaylik,
Yoshlik qanday beg'ubor!

Maktabda biz yaxshi o'qib,
Kamolotga yetaylik.
Yurt ertasi, ravnaqiga,
Bilimni sarf etaylik!

Ziyodaxon ABDULLAYEVA,
Farg'ona viloyati,
Uchko'prik tumanidagi
1-umumta'lim maktabi

QORBOBONI OLIB KELAR

Chorlab bizni yangi-yangi zafarlarga,
Qanot qoqib kirib keladi Yangi yil.
Boshlab bizni yangi baxt va omadlarga,
Shunqor kabi yelib keladi Yangi yil.

Oppoq qorlar shu'lalanib uchqunlanar,
Yangi yil oldidan qalblar to'lqinlanar.
Dilda yangi orzular uchquni yonar.
Qalblarga zavq solib keladi Yangi yil.

Ko'm-ko'k archa turar ko'rk – salobat bilan,
Qorqiz bo'lib hamrohi, latofat bilan.
Yelkada sovg'a to'la qop, savlat bilan,
Qorboboni olib keladi Yangi yil.



Eshniyoz BURHONOV,
Qashqadaryo viloyati,
Chiroqchi tumanidagi
34-maktab



2010

Tong yulduzi
27-dekabr

Adolatli hakam Ravshan akaning nafaqat mahoratiga, kamtarligiga ham astoydil havas qildik

Xo'sh, sportchi bolajonlar, yilingiz qanday o'tdi? Yangi yil bayrami arafasida ko'nglingizdan nimalar kechyapti? Qanday yaxshi ishlar qilishga, yutuq va muvaffaqiyatlarga erishishga ulgurdingiz-u, nimalarga ulgurmadigingiz? Bu savollarni har biringiz o'zingizga berib ko'ring.

Biz esa bu kabi savollar bilan «Paxtakor» futbol akademiyasida tarbiyalanayotgan tengdoshlaringizga murojaat qildik.



KUMUSH OLTINGA AYLANDI

Sardor SODIQOV, jamoa darvozaboni:

– 2010-yil jamoamiz uchun omadli keldi. Jamoamiz bilan 2009-yilda ham shahar chempionatida qatnashib, kumush medalli bo'lgandik. Bu yil esa kumushni oltinga aylantirdik. Mening zimmamda «Darvozabon yarim jamoa» degan mas'uliyatli vazifa bor. Yangi 2011-yilda ham bu ishonchni oqlashga harakat qilaman.

Yilning so'nggi musobaqasi jamoamiz uchun eng hayajonli bahslardan biri bo'ldi. Osiyoning uch marta tengsiz hakami deb tan olingan hamiyurimiz Ravshan aka Ermatov boshchiligidagi hakamlar brigadasi musobaqamizni boshqargani unutilmas voqeaga aylandi. Adolatli hakam Ravshan akaning nafaqat mahoratiga, kamtarligiga ham astoydil havas qildik.

G'OLIBA suhbatlashdi



BIRDAMLIGIMIZ QO'L KELDI

Yusuf SHOIMOV, markaziy himoyachi, jamoa sardori:

– Yil davomida chempionatlarda muvaffaqiyatli qatnashdik. Shuningdek, Navoiy shahrida bo'lib o'tgan bolalar va o'smirlar respublika turnirida munosib 3- o'rinni egalladik. Yil oxiridagi musobaqa biz uchun juda qiyin kechdi. Ammo jamoaning birdamligi, murabbiy tajribasi qo'l keldi va qashqadaryolik tengdoshlarimiz ustidan penaltilar bellashuvida g'oliblikni qo'lga kiritdik.



SOVG'A OLSAK ARZIYDI

Umar ADHAMZODA, chap qanot himoyachisi:

– Biz Qorbobo va Qorqizdan sovg'a olsak arziydi. Sababi, «Nasaf» jamoasidagi tengdoshlarimiz bilan o'tgan o'yinda 2010- yil bizga katta yutuqlarni hadya etdi.

Iroda JA'FAROVA
Jizzax shahridagi 1-
maktabning 9-«YE» sinf
o'quvchisi, shahar
«Kamalak» bolalar
tashkiloti sardorlar
kengashi raisi.
Shuningdek, «Umid
nihollari – 2009» sport
musobaqalarining
respublika bosqichi
ishtirokchisi hamda
«Kamolot» shaxmat
taxtasi musobaqasining
respublika bosqichi
sovrindori.



QORQIZGA ATILGAN SOVG'A

Irodaning shaxsiy kutubxonasidan 500 ga yaqin badiiy adabiyotlar, qo'llanmalar joy olgan. Ular orasida shaxmat o'yiniga oid kitoblar ham talaygina. Quvonarlisi, uning kutubxonasi hamisha do'stlari bilan gavjum. Yangi yil arafasida sinfdoshlari Komila, Zuhra, Zarina yana kitob mutolaasiga kelishdi. Irodaning shaxmat haqidagi kitob-

lari dugonalarini ham qiziq-tirib qo'ydi. Irodaning bolalar va o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan viloyat spartakiadasida birinchi darajali diplom bilan taqdirlanganini eshitib, ularning qalbidan ham sportning bu turiga havas uyg'ongan bo'lsa, ne ajab?! Barchaga ibrat bo'layotgan shaxmatchi qiz Iroda gullar parvarishida ham ancha

bilimga ega. Uning uyida 100 dan ziyod chiroyli gullar o'syapti. Nilufar, chinnigul, sunbula-yu apelsin gullari insonga zavq bag'ishlaydi.

Bordi-yu, Qorbobo va Qorqiz shaxmatchi qizning uyiga tashrif buyurishsa, ularga ham atagan sovg'asi tayyor...

Abdulla SAIDOV

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, shu yaqin zamonda, vodiy degan tomonda Sohijon degan bola yashar ekan. Uning uch opasi, ota-onasi va bemor buvisi bor ekan.

Yangi yil oqshomida gupillab qor yog'ibdi. Buvisi tashqariga chiqib, qorda yurishni, toza havoda sayr etishni istabdi-yu, lekin o'rmidan turolmasligini bilib: «Hay, attang, yoshlik o'tdi-ya! Yoshligimda bunday paytlarda sigir sog'ib sut pishirardim, non yopardim, ariqdan suv tashib kelardim, kechqurun dasturxon bezatib, mehmon kutardik», deya xo'rsinibdi.

Sohijon buvisining ahvoliga rahmi kelib, juda xafa bo'libdi. Katta bo'lsam, zo'r do'xtir bo'lib, buvimni tuzataman, deya ahd qilindi.

Qo'shni xonada bazm boshlanibdi. Mehmonlar qah-qah otib o'ynab-kulganlarida, derazalar zirillabdi. Buvisi: «Oyoqlarim sog' bo'lganda, men ham ular bilan chaqchaqlashar edim», debdi. Bola yanada xafa bo'libdi va qanday bo'lmasin buvisining ko'nglini chog' qilish haqida o'ylay boshlabdi.

Qo'shni hovlidan bolaning:

– Dadam tarvuz olib keldilar, – degan sho'x ovozi eshitiildi.

Buvisi:

– Bu mahalda tarvuz ot go'shtiga teng bo'ladi, – debdi. – Bir tilim tarvuz bo'lsa, ishtaham ochilardi!

Bola o'rmidan turib, mehmonxonaga mo'ralabdi va katta opasidan:

– Tarvuz bormi? – deb so'rabdi.

– Bor edi, achigan ekan, tashlab yubordik, – deya javob qilindi opasi.

Bola eshikni yopib, tashqarida o'ylanib qolibdi. Buvisiga tarvuz topib kelishi kerak. Lekin qayerdan?! Qo'shniidan so'rasinmi? Yo'q, uyat!

O'tgan hafta dalaga xashakka borgani, u yerdagi polizda mitti tarvuzlarni ko'rgani esiga tushib, paltosini, qo'lqopini, quloqchinini kiyib, ko'chaga chiqibdi. Buni hech kim sezmad.

Sohijon qorong'i bog'dan o'tibdi, suv kechib, shudgor oralab, keng dalaga chiqibdi. «Sen Alpomishdek jasur bolasan», der ekan buvisi yarim kechalarda choy olib kelib bersh. «Ha, men Alpomishdek jasur, hech narsadan qo'rqmaydigan bolaman», debdi u va ovozi baralla qo'ygan dostonni yoddan o'qib, yo'lida davom etibdi. Uzoqdan bo'ri uvlabdi. U bir zum to'xtab, atrofga



quloq solibdi. Atrof jim-jit ekan, biroq hayajonlanibdi. «Bo'ri yeb ketsa-ya?!» degan vahimaga ham boribdi. Lekin uyda bir tilim tarvuzga ilhag yotgan buvisi esiga tushib, yana dadil olg'a bosibdi. Jarlikdan o'tib tepaga ko'tarilibdi va polizga yetibdi. Tun qorong'usida qo'li bilan palak-poyalarni titib, tarvuz qidiribdi, ammo hadeganda qo'lga biror narsa ilinavermabdi.

U jon holatda yugurib, ichkarilab ketibdi va nihoyat, soyga tushgach, bir katta tarvuz qo'lga ilinibdi. Xursand

bo'lgancha uni ko'tarib, yo'lga tushibdi. Chopib-chopib jarlikka yetibdi. Adirlik ustida ikkita qora maxluq ko'ziga ko'rinishdi. Ularning ko'zlari o'n tiyilik tangadek olovlanib yonarkan. «Bo'rilar! – debdi Sohijon. – Nahotki, tarvuzni buvimga yetkazolmayman?!» deya tashvishga tushibdi. Bo'rilar unga qarab ot qo'yishibdi. Sohijon joyida muk tushib, taqdirga tan berib, bo'yini egibdi. Balki bo'rilar menga tegishmas, degan beg'ubor o'y o'tibdi ko'nglidan. Shu mahal ortidan o'q ovozlari eshitiildi. Ikki bo'ri ham bo'g'iq ovozdagi ingrab, tap-tap jarga tomon qulabdi.

Qo'shni qishloqlik ikki ovchi bo'rilarining iziga tushishgan ekan. Qor tushgandan buyon bo'rilar qishloqdagi qo'ylarga qiron keltirayotgan ekanlar. Ular kela solib bolani so'roqqa tutishibdi va vaziyatni anglab: «Bundan keyin kechasi yolg'iz yurma», deyishibdi-da, uni uyigacha kuzatib qo'yishibdi.

Yo'lda ular: «Biz seni uzoqdan ko'rdik, sendan oppoq nur taralib turardi», deyishibdi va:

– Yaxshi qol, tunni yoritgan bolakay! – deya xayrlashishibdi.

Sohijon rahmat aytib, ularni uyiga taklif qilsa ham kirishmabdi. Ovchilar endi borib, bo'rilarining terisini shilib, tezroq uylariga qaytishlari lozimligini, bolalari kutishayotganini aytishibdi.

Uyga kira solib tarvuzni yuvibdi-da, ikkiga bo'lib, yarmini karch qilib, dasturxonga qo'yibdi. Yarmini esa buvisining yoniga qo'yibdi.

– Qayerdan olib kelding? – deb so'rabdi opalari.

– Daladan! – deya to'g'risini aytibdi bola.

– Alpomish, bolam! – deya buvisi uni bag'riga bosibdi.

Ertasi – Yangi yilning birinchi kunida uning nomi butun qishloqqa ovoza bo'libdi. Shundan beri uni «Tunni yoritgan bola» deb chaqirishadigan bo'lishibdi.

Sevara HAYITOVA



2011-yil

Aziz bolajonlar! Kirib kelayotgan 2011-yil Quyon yili ekanligini ko'pchiligingiz bilib olgandirsiz-a? Bugun e'tiboringizga Quyon muchalida tug'ilgan insonlar haqida ma'lumot bermoqchimiz. Diqqat bilan o'qisangiz, Sizni Yangi yilda nimalar kutayotganini ham bilib olasiz.

Quyon yilida tavallud topganlar o'ziga xos xislatlarga ega bo'lib, qobiliyatli, izzatlab, kamtarin, bosiq va saxovatli kishilardir. Ular nozik didlari bilan ajralib turadilar, hammaning tahsiniga va ishonchiga sazovor bo'ladilar. O'ta vazmin bo'lganliklari uchun ularning tinchini buzish qiyin. Ularda haqiqiy hissiyotdan ko'ra, taniqlik kuchli. Arzimas bahona bilan yig'lashlari mumkin, lekin shu zahotiyoq ovunib qolishadi. Bu muchal sohiblarining hayot tarzlariga putur yetkazadigan, uni qiyinlashtiradigan har qanday yangilikka toqatlari yo'q. Badastir, xavf-xatarsiz yashashga intiladilar. Oldindan «yaxshi» va «yomon» tomonlarini solishtirib ko'rmasuncha, hech bir ishga qo'l urishmaydi. Ajoyib ishchanlik qobiliyatiga ega kishilardir. Garchi, ba'zan o'taketgan rasmiyatchi bo'lsalar-da,

halol va o'z so'zlarining ustidan chiqishadi. Iqtisodiy jihatdan hamisha omadlari yurishadi, o'ylagan ishlarini amalga oshishida ephillik ko'rsatishadi. Ulardan ajoyib ishbilarmon kishilar yetishib chiqadi. Hayotlari tahluka ostida qolmasa, iste'dodli huquqshunos yoki diplomat ham bo'lishlari mumkin. Bu muchalda tug'ilgan qizlar har qanday sohada o'zlarini ko'rsatishlari mumkin.

Umuman, ushbu yilda tug'ilganlar o'zlarini yoqtirgan insonlarga nisbatan juda xushmuomala bo'ladilar va ularning xizmatiga shaydirlar. Lekin do'stlar manfaatiga xizmat qilaman deb, eng yaqin kishilaridan ayrilishlari oson. Agar ular favqulodda hodisalarga, fojiali voqealarga, yengib o'tib bo'lmas to'siqlarga duch kelishmasa, butun umr osoyishta yashashadi.

YANGI YIL XANDALARI

- Buvijon, siz hech Qorqiz bo'lganmisiz? - so'radi Odina bog'chadan kelib.
- Yo'q, nima edi?
- To'g'ri qilgansiz, Qorqiz bo'lganingizda, yozda allaqachon erib ketgan bo'lardingiz.



- O'yijon, bugun archa bayramiga bormasam maylimi?
- Nega endi?
- Kecha bog'chada Karimni sovuq uribdi, meni ham ursa, nima qilaman?!



Fayzulla ABDULLAYEV

Quyon yili barcha uchun, ayniqsa, iqtidorli va iste'dodli insonlarga omadli kelishi kutilmoqda. Bu yilda ijodkorlar adabiyot va san'at sohasida ulkan yutuqlarga erishishlari mumkin.

YANGI YIL QANDAY KELISHI KUTILMOQDA?



SICHQON yilida tug'ilganlar yangi yilda o'zlarini qo'lga olib, tinimsiz harakat qilsalar, o'ylagan maqsadlariga yetadilar.



SIGIR yilida tug'ilgan insonlar uchun Quyon yili juda omadli kelishi kutilmoqda. Ular mehnatlariga yarasha taqdirlanib, Quyondan mamnun bo'ladilar.



YO'LBARS yilida tug'ilgan insonlardan 2011-yilda ham jismoniy, ham aqliy mehnat qilishlari talab qilinadi. Shundagina, yangi yil ularga omad keltirishi mumkin.



QUYON yilida tug'ilganlar uchun o'zlarining yillari quvonch va do'stlik olib keladi. Ular eski do'stona aloqalarini tiklab, ko'plab yangi do'stlar orttiradilar.



BALIQ yilida tavallud topganlar yangi yilda omaddan sal uzoqlashadilar, lekin bu degani Quyon yili ular uchun omadsiz keladi degani emas. 2011-yilda intilganga tole yor, maqoli Baliqlarga juda mos keladi.



ILON yilida tug'ilganlarga 2011-yilda jamoat ishlarida faol bo'lishlarini maslahat beriladi. Romantik insonlar kelayotgan yilda qo'pol hazilga duch kelishlari mumkin.



OT yilida tavallud topganlar Quyon yilida ko'ngilsizlikka duch kelish-kelmaslik o'z qo'llarida. Agar o'z xatolari oqibatida omadsizlikka uchramasalar, yangi yilda o'z maqsadlariga erishadilar.



QO'Y yilida tug'ilganlarga Quyon yili mashhurlikni va'da qilmoqda. Buning uchun esa ular faollikni qo'ldan bermasliklari talab etiladi.



MAYMUN yilida tug'ilgan insonlar Quyon yilida o'zlarini juda baxtiyor xis etadilar. Negaki, 2011-yilda ular uchun barcha imkoniyatlar ochiladi.



TOVUQ yilida tug'ilgan insonlarda kelayotgan yilda ishonchsizlik tuyg'usi yo'qoladi. Bunga ketma-ket keladigan yutuqlar sabab bo'ladi.



IT yilida tavallud topganlarga Quyon yili xotirjamlik olib keladi. Natijada, ular yangi yilda rejalaridagidan ko'p ishlarni bajarib, ko'plab imkoniyatga ega bo'ladilar.



TO'NG'IZ yilida tug'ilganlar o'z kechirimliliklari va ishonuvchanliklari bilan omad tomon qadam tashlaydilar. Bu fazilatlar bilan atrofda do'stlari safini yanada kengaytirib, muvaffaqiyat tomon qadam tashlaydilar.

Internet xabarlari asosida GULYUZ tayyorladi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lg'in HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbachtillar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31687
Buyurtma N: J 787